



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I**

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabdan tashqari
ta’limni yangi bosqichga olib chiqish chora-dabirlari to‘g‘risida”
2025-yil 8-sentabrdagi PQ-277-son qarori ijrosi haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabdan tashqari ta’limni yangi bosqichga olib chiqish chora-dabirlari to‘g‘risida” 2025-yil 8-sentabrdagi PQ-277-son qarori ijrosini ta’minlash hamda bolalarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli va samarali tashkil etish, ularni intellektual jihatdan yetuk, Vatanga sadoqatli, tarix va milliy madaniyatimizga hurmat ruhiyada tarbiyalash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi PQ-277-son qarori (keyingi o‘rinlarda - Qaror) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qaror bilan quyidagilar:

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi “Barkamol avlod” respublika bolalar maktablari hamda “Respublika o‘quvchi-yoshlar markazi” negizida Respublika “Kelajak” markazi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, shuningdek, tuman (shahar) “Barkamol avlod” bolalar maktablari negizida tegishli Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, shuningdek, tuman (shahar) “Kelajak” markazlari;

Buxoro, Namangan, Samarqand va Xorazm viloyatlari “Kelajak” markazlari huzurida bolalar sayyohlik bazalari tashkil etilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

“Kelajak” markazlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika komissiyasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

“Kelajak” markazlari faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining chora-tadbirlar rejasi 2-ilovaga muvofiq;

Umumta’lim maktablarida “Maktab maslahatchisi” lavozimiga mutaxassislarni ishga qabul qilish bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi,

viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek, tuman (shahar) “Kelajak” markazlarining namunaviy ishchi guruhi tarkibi 3-ildavaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida 2025-yil 1-oktabrdan boshlab “Maktab maslahatchilari” faoliyati yo‘lga qo‘yiladigan umumiy o‘rta ta‘lim maktablari ro‘yxati 4-ildavaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek, tuman (shahar) “Kelajak” markazi direktori va o‘rinbosarlari hamda “Maktab maslahatchisi”ning malaka tavsiflari 5-ildavaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar “Bolalar kutubxona”larining maqbullashtiriladigan shtat birliklari 6-xdfu (tarqatilmasin) ildavaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Qaror qabul qilinganligi munosabati bilan Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish boshqarmasi (I.Sharipov):

a) Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi nomenklaturasiga kiruvchi lavozimlarida ishlayotgan xodimlarning tegishli hujjatlarini amaldagi mehnat qonunchiligiga muvofiq rasmiylashtirsin;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmalari bilan birgalikda Mehnat kodeksining 156-moddasiga muvofiq yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarni xodimlarning roziligi bilan davom ettirsin;

d) quyidagi xodimlarni O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida belgilangan tartibda ogohlantirish choralarini ko‘rsin:

2025-yil 1-oktabrdan boshlab maktabgacha va maktab ta‘limi tizimidagi umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlaridagi ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari lavozimini har bir umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotiga 1 ta shtat birligida ajratish hisobiga bo‘shaydigan 3 400 ta shtat birliklarida faoliyat yuritayotgan xodimlar;

lavozimi qisqarayotgan xodimlar;

tegishli viloyatlar va Toshkent shahri bolalar kutubxonalarining 182 ta shtat birligi “Kelajak” markazlariga o‘tkazilishi munosabati bilan shtat birliklari qisqartirilayotgan xodimlar;

Mehnati kodeksining 137-moddasiga asosan Respublika o‘quvchi yoshlar markazida faoliyat olib borayotgan xodimlar.

5. Belgilansinki:

a) Respublika “Kelajak” markazi direktori va o‘rinbosarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar “Kelajak” markazlarining direktorlari Maktabgacha va maktab ta‘limi vaziri tomonidan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar “Kelajak” markazlarining direktor o‘rinbosarlari Respublika “Kelajak” markazi bilan kelishgan holda hududiy “Kelajak” markazlari direktori tomonidan;

tuman (shahar) “Kelajak” markazlarining direktorlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar “Kelajak” markazlari direktorlarining tavsiyasiga asosan Respublika “Kelajak” markazi direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek, tuman (shahar) “Kelajak” markazlari xodimlarining lavozim yo‘riqnomalarini ishlab chiqish va tasdiqlash Respublika “Kelajak” markazi tomonidan amalga oshiriladi.

6. Maktabdan tashqari ta’limni tashkil etish boshqarmasi (I.Xoldarova)ga:

“Kelajak” markazlari rahbarligi uchun strategik fikrlash, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega yuqori malakali kadrlarni tanlab olishga alohida e’tibor qaratish;

“Maktab maslahatchisi” lavozimi faoliyati yo‘lga qo‘yiladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablariga munosib nomzodlarni har tomonlama saralab olinishini nazorat qilish;

ikki oy muddatda “Kelajak” markazlari direktorlari faoliyatini baholashning eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlarini (KPI) ishlab chiqish;

Iqtisod va moliya departamenti (A.Boltayev), Yuridik boshqarma (Sh.Mamadiyarov) bilan birgalikda o‘n kun muddatda “Kelajak” markazi to‘g‘risidagi nizom, “Kelajak” markazi to‘garaklarida o‘qiganlik uchun ota-onalar badal to‘lovi miqdorlari, “Kelajak” markazi va “Bolalar sayyohlik bazalari”ning namunaviy tuzilmalari, “Kelajak markazi”larini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish hamda xodimlarning namunaviy shtatlar jadvali va ish haqi miqdorini belgilash bo‘yicha Hukumat qarori loyihasini ishlab chiqish vazifalari yuklatilsin.

7. Soha infratuzilmasini rivojlantirish departamenti (F.Kushnazarov) Maktabdan tashqari ta’limni tashkil etish boshqarmasi (I.Xoldarova) bilan birgalikda:

“Kelajak” markazlari uchun ajratilgan binolarni balansga olish bo‘yicha mas‘ul tashkilotlar bilan birgalikda qabul qilish dalolatnomalarini rasmiylashtirish hamda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish choralari ko‘rsin;

2025-yil xususiylashtirish dasturiga kiritilgan obyektlarni auksion savdolari orqali sotilishidan tushgan mablag‘larni “Kelajak” markazlarini moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga yo‘naltirilishi bo‘yicha tegishli ishlarni amalga oshirsin;

ikki oy muddatda “Barkamol avlod” bolalar maktabi, O‘zbekiston “Yoshlik” jismoniy tarbiya va sport jamiyati, Respublika o‘quvchi-yoshlar markazi bino va inshootlarini inventarizatsiyadan o‘tkazgan holda “Kelajak markazi”ga qoladigan binolarni hujjatlashtirish hamda talabga javob bermaydigan binolarni auksion orqali sotish ishlarini tashkil etsin.

Bunda, auksion orqali sotilgan bino va inshootlardan tushgan mablag‘lar “Kelajak markazi”larini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga yo‘naltirilsin.

8. Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi (A.Baxramov) har yili vazirlik huzuridagi oliy ta'lim tashkilotlari bilan bitiruvchi talabalarni "Maktab maslahatchisi" lavozimi uchun ishga jalb qilish bo'yicha targ'ibot ishlarini amalga oshirsin.

9. Axborot-kommunikatsiyalari va texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (R.Musurmonov), Maktabdan tashqari ta'limni tashkil etish boshqarmasi (I.Xoldarova) 2026-yil mart oyiga qadar "Kelajak" markazlari faoliyatini to'liq raqamlashtirish bo'yicha platformani ishga tushirish choralarini ko'rsin.

10. A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (A.Ismailov) "Kelajak markazi"lari direktorlari, direktor o'rinbosarlari va "Maktab maslahatchilari" uchun menejerlik sertifikatini joriy etsin hamda 2026-yil 1-sentabrdan boshlab menejerlik kurslari faoliyatini yo'lga qo'ysin.

11. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlariga:

o'n kun muddatda "Maktab maslahatchisi" lavozimi uchun uchtdan nomzodlar hujjatlarini respublika ishchi guruhiga taqdim etish;

ushbu buyruqning 4-ilovasi bilan tasdiqlanayotgan umumta'lim maktablarida 1-oktabr kundan Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari shtat birliklari "Maktab maslahatchisi" lavozimiga o'tkazilishi munosabati bilan direktor o'rinbosarlariga o'z fani bo'yicha dars soatlari ajratish yoki boshqa ish taklif qilish choralarini ko'rish;

bir oy muddatda hududiy va mahalliy hokimliklar bilan kelishgan holda "Kelajak" markazlari binolariga joylashtirilgan boshqa tashkilotlarni chiqarish choralarini ko'rish;

hududlarda tashkil etiladigan Respublika ishchi guruhi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish vazifalari yuklatilsin.

12. Buxoro viloyati (X.Elliyeu), Namangan viloyati (A.Isakov), Samarqand viloyati (M.Xamdami) va Xorazm viloyati (X.Bektemirov) maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari bir oy muddatda "Kelajak" markazlari huzurida bolalar sayyohlik bazalari faoliyatini yo'lga qo'ysin.

Bunda, bolalar sayyohlik bazasining to'liq faoliyat ko'rsatishi uchun hududiy hokimlikning alohida konsepsiyasi ishlab chiqiladi hamda mavjud binolarni ta'mirlash, yangi binolarni qurish hamda har yili moliyalashtirish manbalari, avtobus va tegishli transport vositalari bilan ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratilsin.

13. Jizzax viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (S.Suyarova) o'n kun muddat Jizzax shahridagi Bolalar kutubxonasi binosini hududiy "Kelajak" markaziga o'tkazsin.

14. Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (I.Yuldashyeva) Toshkent shahar "Kelajak" markazi Mirzo Ulug'bek tumani, Mustaqillik ko'chasi 69-uy manzilidagi binonining 1-qavatida, Mirzo Ulug'bek tumani "Kelajak" markazi filiali Mirzo Ulug'bek tumani, Buyuk ipak yo'li 1-uy manzilidagi binoda tashkil qilsin.

15. Protokol bo'limi (F.Keldibekov) mazkur buyruqni vazirlikning tegishli tarkibiy bo'linmalari tasarrufdagi tashkilotlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga yetkazilishini ta'minlasin.

16. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari F.Boqiyev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



E.Karimova

Toshkent sh.
2025-yil "30"-sentabr,
368-son

